



CIVIL SOCIETY IS AN IMPORTANT FACTOR OF DEMOCRATIC DEVELOPMENT

Otabek Boranovich Bakirov
head of the department
Jizzakh Sambhram University
Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Civil society, Constitution, democracy, state, society, law, politics.

Abstract: In this article, information related to the emergence and formation of the structure of the state and society, as well as its development, is expressed.

Received: 28.06.24

Accepted: 30.06.24

Published: 02.07.24

FUQAROLIK JAMIYATI – DEMOKRATIK TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

Otabek Bo‘ranovich Bakirov
kafedra mudiri
Jizzax Sambhram universiteti
Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyatini, Konstitutsiya, demokratiya, davlat, jamiyat, huquq, siyosat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat va jamiyat tuzulishining paydo bo‘lishi va shakllanishi, tarkib topishi qolaversa, taraqqiy etishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar o‘z ifodasini topgan.

ГРАЖДАНСКОЕ ОБЩЕСТВО – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Отабек Боранович Бакиров
Заведующий кафедрой
Джизакский Sambhram университет
Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гражданское общество, Конституция, демократия, государство, общество, право, политика.

Аннотация: В данной статье выражены сведения, связанные с возникновением и формированием устройства государства и общества, а также его развитием.

KIRISH

Har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o‘z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo‘lgan mamlakat o‘zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og‘ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Tarixga nazar solsak, asrlar davomida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya shakliga kelganini ko‘ramiz. Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta’lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so‘z hamda e’tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi. Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e’tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Aynan shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirom bilan ulug‘lashimiz, har tomonlama o‘rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo‘lgan ajdodlarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz qalbiga singdirishimiz zarur.

ASOSIY QISM

Insoniyat rivoji tarixida turli xil mafkuralar o‘rtasida jamiyatda etakchilik qilish uchun qattiq kurashlar bo‘lgan. Shuning uchun ham insoniyat tarixini g‘oyalar kurashi tarixidir deb bejiz aytilmagan.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi. Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq. Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir.

Shu boisdan ham barcha bo‘g‘indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim yoki oddiy fuqaro bo‘lsin, Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi hamda birinchi navbatda bu qoidalarga butun jamiyat a‘zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhit yaratishimiz zarur.

Fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning “Siyosat” asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar XVII - asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtirildi. XVIII - asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki, jamiyatning teng huquqli a'zolari sifatida “fuqarolik” tushunchasi paydo bo'ldi. Ular jamiyat va davlat manfaatlarini bilan uzviy bog'langan holda shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri – bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsiplar ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplar masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy prinsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan uch bosqichga bo'lib tahlil qilish tavsiya etiladi. Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining shakllanishining asoslari yaratildi. Ikkinchi bosqich (2000-2010 yillar)da mamlakatni demokratlashtirish va

modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi. 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"ning yaratilishi ham asosiy masalaning rivojlanishiga to'laqonli zamin yaratdi. Ushbu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi. Shundan so'ng, uchinchi bosqichni boshlab berdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarining mazmun mohiyatidan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati tushunchasiga turli xil darajada ta'riflar berilmoqda. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan edi: "Fuqarolik jamiyati – bu qonun ustuvorligini ta'minlaydigan, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni kafolatlaydigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan, aholinig keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanidigan mustaqil va barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir. Yurtimizdagi jamiyatshunos olimlar ham fuqarolik jamiyatini bu – erkin, demokratik, huquqiy sivilizatsiyalashgan jamiyat bo'lib, unda yakka hokimlik rejimiga, volyuntarizmga, sinfiy adovatga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'rvonlik qilishga o'rin yo'q, Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, axloq, insonparvarlik, adolat ustuvorlik qiladi. Bu jamiyatda ko'p tarmoqli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi. Turli ijtimoiy qatlamlar manfaatleri muvozanatga keltirib turiladi yoki fuqarolar o'rtasidagi muayyan murosaga kelish, davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida kelishuv madaniyati vujudga kelganda, shuningdek, dunyoqarashlar plyuralizm, davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro ta'sirga kirishishga layoqatli jamoatchilik institutlari vujudga kelganda shakllanishi mumkin deya ta'riflaydi. Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruvining haqiqiy demokratik tabiati to'g'risida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamoqda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi. Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi. Davlat va fuqaro o'rtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zo'rvonligi, "bo'ysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi. Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqorib bo'ladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi tizimlaridan, faol mehnat loyaqatidan so'ndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga

keltirib qo'yishga sabab bo'ladi. Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori bo'lmaydi. Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real ta'minlab bermagan davlat tabiatan ideal bo'la olmaydi.

Demokratik jamiyatda esa fuqarolar o'z erkinligi va huquqlaridan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bular:

- a) avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish;
- b) davlat hokimiyatidan va mustaqil bo'lgan turli institutlarda ishtirok etish;
- v) ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat ko'rsatish;

g) jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lish, turli fikr va qarashlarga o'z munosabatlarini bildirishda erkin bo'lish bilan birga, muayyan ma'suliyatini ham o'z zimmasiga olish orqali amalga oshib boradi.

O'zbekiston mustaqillik tufayli, fuqarolarning so'z, e'tiqod va vijdon erkinligini ham yangicha asoslarga ta'minlash bo'yicha yangi qadamlarni qo'ydi. Bu daxlsizlik huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini milliy qadriyatlar va an'analar, respublikaning milliy tarkibi xususiyatlari, ko'p elatli davlat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshira boshladi. Bu har bir insonga, uning millati, dini, jinsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, fuqaro sifatida ham huquqlarini teng amalga oshirish uchun demokratik asoslar yaratib berildi. Bu respublikada yashayotgan har bir fuqaroning mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida erkin faoliyatini amalda ta'minlab bermoqda. Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida fuqarolarning davlat hokimiyatida ishtiroki jarayon sifatida yangicha mazmun bilan boyib bormoqda. Bu jamiyatda vujudga kelgan xilma-xil demokratik institutlar bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan yondashganda, bugunga kelib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotida davlat hokimiyatidan fuqarolik institutlarining vazifalari kengayib borayotganligini kuzatamiz. Agar, ma'lumot sifatida 1991-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada 95 ta NNTlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2000-yilning 1-yanvarga kelib ularning soni 2585 taga, 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 8 700 taga, hozirgi kunda esa NNTlar soni 9 mingdan ortdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Yosh avlodda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va rivojlantirish O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlik, jamiyat taraqqiyoti va qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarning muhim asosi bo'lib, milliy g'oya va mafkura asosida muayyan maqsadga yo'naltirilgan, jipslashgan yoshlarni tarbiyalash masalasiga O'zbekistonda bugungi kunda katta e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi –T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Sh.Mirziyoyev “Konstitutsiya va qonun ustvorligi-huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi T.:O‘zbekiston, 2019 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr //SH.M.Mirziyoyev. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
4. I.Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi” T.:O‘zbekiston, 2010- yil, 12-noyabr.